



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

REPITISION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

## SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_ F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

### ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo‘yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag‘i raqami bir xil bo‘lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma‘lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to‘ldirilgan yoki to‘ldirilmagan va imzosi qo‘yilmagan hollarda e‘tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: **33 (516972)**

### FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyoti*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1906898**

Toshkent – 2015



## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Qaysi qahramon bir yoshligidanoq o'z ismini burro aytib to'yga yig'ilganlarni hayratlantirgan?  
A) O'g'uzxon ("Shajarayi turk")  
B) Farhod ("Farhod va Shirin") C) Suhrob ("Shohnoma")  
D) Majnun ("Layli va Majnun")
2. O'qituvchilik so'zida so'zga yangi ma'no beruvchi nechta morfema qatnashgan?  
A) 2 ta B) 1 ta C) 3 ta D) 4 ta
3. Qaysi so'zning faqat ko'makchi morfemasi shakldoshlik xususiyatiga ega?  
A) toray B) kechik C) terim D) qisqich
4. 1) Yurak yig'lar, aytishga iymanamiz.  
2) Seni unsiz erkalaydi nigohim.  
3) Karnay yig'lar, surnay yig'lar, qiz yig'lar.  
4) Yoqub cholga "Zaporojes" berishmadi.  
5) Arizalar yozib bersa ko'rishmadi.  
Berilgan gaplarning nechtasida metonimiya usulida ma'no ko'chgan?  
A) 1 ta B) 2 ta  
C) barchasida metafora usulida ko'chgan D) 3 ta
5. Quyida keltirilgan parcha qaysi asardan olingan va unda nima tasvirlangan?  
"... oyoq qo'yan yer o'pirilib tushib, tubsiz o'ngirga aylandi. U oyog'ini tortib olib, orqaga tisarildi. Qorayib turgan o'ngirning labida qandaydir daraxtning ildizi ko'rindi. ... tubsiz jarga yiqilay deganda shu daraxtni ikki qo'llab tutib qoldi. Bir payt daraxt ham ildizi bilan sug'urilib chiqa boshladi".  
A) "Hellados" hikoyasi, Yanguli holati  
B) "Ulug'bek xazinasi" romani, Abdullatif tushi  
C) "Yulduzli tunlar" romani, Bobur holati  
D) "Avlodlar dovoni" romani, Humoyunning tushi
6. Ayiruv bog'lovchisi qo'shma gap qismlarini bog'lamagan gapni aniqlang.  
A) Yo urug' aynigan, yo agrotexnika qoidalari buzilgan.  
B) Har kuni oqshomda bu yo'ldan goh paxta dalasidan qaytayotgan terimchilar o'tib qoladi, goh paxta ortgan traktorlar u yoqdan bu yoqqa g'izillaydi.  
C) Men kuyladim goh dilda kadar,  
Goh sevinib she'r to'qiyman men.  
D) Polvonlar epchillikda bir-biridan o'tadi, goh unisi, goh bunisi yutadi.
7. Qaysi javobda faqat yasama ravishlar keltirilgan?  
A) ataylab, tezkor, mardlarcha  
B) ochiqchasiga, ancha, qo'qqisdan  
C) birpas, dastlabki, birdaniga  
D) tonnalab, butunlay, o'zicha
8. Berilgan baytlarning qaysi birida 4 ta sodda gap mavjud?  
A) Ming-ming shukr, kelib davron istiqloлга erishdik biz,  
Xarob bo'lgan xonadonni butlamoqqa kirishdik biz.  
B) Jahon ichra buyuk yurtni doston etaylik biz,  
Zamon keldi, Vatan bag'rin go'zal bo'ston etaylik biz.  
C) Muravvat-u ma'rifatdir buyuklikning nishonasi,  
Qadam qo'ying, mana sizga asl yo'lning ostonasi.  
D) Oldindadir hali hikmat, oldindadir imkonimiz,  
Yetishgaymiz kela jakka, pokizadir vijdonimiz
9. Do'mbira yordamida dostonlar ijro etuvchi, kuylovchi san'atkor "xalfa" deb yuritiladigan viloyatni aniqlang.  
A) Buxoro B) Xorazm C) Farg'ona D) Qashqadaryo
10. Quyidagi qaysi so'zlardan shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan qo'shimcha yordamida ot yasash mumkin.  
1) och, 2) quy, 3) itoat, 4) gul, 5) o't, 6) olcha, 7) kech  
A) 1, 2, 3, 5, 6, 7 B) 1, 2, 4, 5, 7 C) 2, 4, 5, 6, 7  
D) 1, 2, 4, 5, 6
11. Quyida keltirilgan misralarda qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi?  
**Ona – u, bag'rida millat beshigi,  
Qalbida yopilmas qadr eshigi,  
Allasi oromdir – hayot qo'shig'i,  
Ayol omon bo'lsa, dunyo go'zaldir.**  
A) tovush almashishi, tovush ortishi  
B) tovush ortishi, tovush tushishi  
C) tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi  
D) tovush almashishi, tovush tushishi
12. Quyidagi qaysi ijodkor o'zini muhit girdobidagi bir somon parchasiga o'xshatgan?  
A) A. Avloniy B) Avaz O'tar C) Fitrat D) Cho'lpon
13. Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?  
**Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.  
Nechun qora libos, sochlaringda oq,  
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?**  
She'riy parchada olmosh turkumiga oid so'zlar necha marta qo'llangan?  
A) 6 B) 7 C) 5 D) 8
14. Sening tug'ilib o'sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko'zim yetmasdi, buni hammadan ham men juda yaxshi bilardim.  
Ushbu gapda nechta aniqlovchili birikma ishtirok etgan?  
A) 4 ta B) 1 ta C) 2 ta D) 3 ta
15. - Men ko'rganman osmonlarning tinig'ini,  
Toshlar tegdi, terib oldim sinig'ini.  
Beshikdagi go'daklarga tig' sanchdilar,  
Shunda bildim mardlarningning qilig'ini.  
Fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang.  
A) 4 B) 3 C) 5 D) 6
16. Qaysi javobda Mirtemirning "Surat" asari janri to'g'ri ko'satilgan?  
A) lirik hikoya B) lirik qissa C) ballada  
D) dramatik doston
17. Qaysi gap faqat ega, to'ldiruvchi, kesimdan tashkil topgan?  
A) Bilim mehnat bilan, tilak g'ayrat bilan go'zal.  
B) Bulbulni tinglashni sevaman.  
C) Odamni har doim aql yuksaltiradi.  
D) Xalq bor yerda haqlik bor.
18. Qaysi javobda keltirilgan asarda o'zini pahlavonlik sirlarini o'rgatgan ustozidan ortiq bilib, u bilan kurash tushishga da'vo qilgan yigit haqida hikoya qilingan?  
A) Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig"  
B) Ahmad Yugnakiy, "Hibatul-haqoyiq"  
C) Gulxaniy, "Zarbulmasal"  
D) Sayfi Saroyi, "Gulistoni bit-turkiy"

19. "Ko'rar ko'zim ko'rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo'ldi (es-hushimdan ayrildim), jonim azobda qoldi".  
Ushbu parchada tasvirlanayotgan azobga sabab nima edi?  
A) Turk beklarining Tabg'ach xoqoniga qaram bo'lgani  
B) Turk davlati, hukumatining buzilgani  
C) Tabg'achning qo'shin tortgani  
D) Kul Tiginning vafoti
20. Navoiy qit'asidagi "Kamol et kasbkim..." so'zlarining asl ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?  
A) Kasb o'rganishni kamolga yetkaz  
B) Kasbing kamolini o'rgan C) Kasbing bilan kamolga yet  
D) Kamolga yetishni o'zingga kasb qilib ol
21. Tarkibida ot turkumiga oid beshta so'z qatnashgan gapni aniqlang.  
A) Qoralik ayolning sochida, kipriklarida, qoshida va ko'zida bo'lishi kerak.  
B) Kenglik ayolning manglayida, chehrasida bo'lishi husnini oshiradi.  
C) Oqlik ayolning ko'zining oqi va yuzida bo'lishi kerak.  
D) Uzunlik sifatiga kelsak, ayolning qomati, sochi va kipriklarining uzun bo'lishi go'zallik belgisidir.
22. Barcha javr-u sitamlardan o'tgan, endigina seni qo'lingdan tutgan, seni yo'qotib qo'ymaslik maqsadida butun vujudi bilan sen uchun yashayotganlarning orzusisan.  
Ushbu gapda yasama so'zlar qaysi gap bo'laklari bo'lib kelgan?  
A) qaratqich aniqlovchi  
B) maqsad holi, sifatlovchi aniqlovchi  
C) maqsad holi, qaratqich aniqlovchi  
D) ega, qaratqich aniqlovchi
23. Y. E. Bertels quyidagi fikrni X asrda qayerda yaratilgan adabiyot haqida yozgan?  
"Aslini aytganda, til nuqtayi nazaridan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo'lish - haqiqatan shartli narsadir"  
A) Samarqandda B) Toshkentda C) Buxoroda  
D) Qashqarda
24. Abayning "Nasihatlar" kitobida "Mensiz inson na o'z foydasini biladi, na o'z zararidan qochib qutula oladi. Hatto ilmni ham o'qib o'rgana olmaydi" degan fikrlarni Ilmga kim aytadi?  
A) Mehnat aytadi B) G'ayrat aytadi C) Yurak aytadi  
D) Aql aytadi
25. Qaysi gapda orttirma darajadagi sifat bilan ifodalangan narsaning turli belgilarini bildirgan uyushiq aniqlovchi qatnashgan?  
A) Biz dum-dumaloq, sap-sariq olmalarni terib oldik.  
B) Tadbirda maktab haqida, ustozlar haqida iliq va samimiy fikrlar aytili.  
C) Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi.  
D) Bog'imizda sap-sariq va qip-qizil atirgullar qiyg'os ochildi.
26. Navoiyning qaysi asari sari' bahrida yozigan?  
A) "Farhod va Shirin" B) "Layli va Majnun"  
C) "Saddi Iskandariy" D) "Hayrat ul-abror"
27. Qaysi javobda quyida keltirilgan gapda ishtirok etgan fe'lning vazifa shakllari to'g'ri ko'rsatilgan?  
Paxta va zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab, yaxshi quritmay dazmollanadi.  
1) sof fe'l; 2) sifatdosh; 3) harakat nomi; 4) ravishdosh  
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4
28. Qaysi javobda quyida keltirilgan gapdagi yasama so'zlar yuzasidan xato hukm bildirilgan?  
Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad – milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.  
A) otdan sifat yasalgan B) fe'ldan ot yasalgan  
C) otdan fe'l yasalgan D) olmoshdan ot yasalgan
29. Qaysi javobda keltirilgan gapda yasama sifatdan yasalgan ot qo'llangan?  
A) Sergaplik dushmaningizdir, chunki u sening aybingni ochib tashlaydi.  
B) Andishali odam iffatli bo'ladi.  
C) Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo'q.  
D) Yoqimli do'st suhbatini olis yo'lni yaqin qiladi.
30. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda ko'chirma gap tarkibidagi qaysi bo'lak -lik, ekanlik kabi shakllarni olib o'z vazifasini o'zgartiradi?  
A) to'ldiruvchi B) kesim C) ega D) aniqlovchi
31. Qaysi gap tarkibida uchta yasama fe'l mavjud?  
A) U Marg'ilonga yaqinlashib qolganda kun og'ib qolgan edi.  
B) Gapirganda ovozi guldurab, jaranglab eshitiladi  
C) Izg'irinda ko'zlar yoshlandi, oyoq ostidagi qorlar g'ichirlaydi  
D) Durroj yolg'on so'zlagani, noto'g'ri gapirgani uchun tuzoqqa tushdi.
32. Ilmiy uslubning xususiyatlari haqida berilgan qaysi hukm(lar) to'g'ri?  
1) sof ilmiy uslubda fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi;  
2) ilmiy-ommabop uslubda ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llansa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi;  
3) tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq turadi.  
4) ilmiy ommabop uslubda eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi.  
A) 2, 3 B) 1, 2 C) 4 D) 1, 4
33. Bosh kelishik shaklidagi ismlarga ergashib kela oladigan vazifadosh ko'makchilar qatorini aniqlang.  
1) sari; 2) tomon; 3) bilan; 4) bo'ylab; 5) qaramay; 6) sayin; 7) kabi  
A) 1, 2, 3, 4, 6, 7 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 4 D) 1, 2, 3, 4
34. Quyidagi ruboiyda qo'llangan she'riy san'at turini aniqlang.  
Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,  
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi,  
Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,  
Bir-bir ne deyin, boshdin oyog'ing yaxshi.  
A) talmeh B) tajnis C) tanosub D) irsoli masal

35. Qaysi javobdagi gapda tinish belgilarining ishlatilishi bo'yicha qoidalarga rioya qilingan?
- A) *Mard bir o'lar, nomard ming.*  
 B) *O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik – barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.*  
 C) *Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday, qanaqa, qaysi so'roqlariga javob bo'ladi.*  
 D) *Do'sting mingta bo'lsa ham oz: dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p.*

36. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlarni belgilang.
- A) *taffiq, koreys* B) *iztirob, kariyes* C) *trest, kilovat*  
 D) *saramjon, taftish*

### BIOLOGIYA

37. Nerv sistemasi halqumusti va halqumosti nerv tuguni va qorin nerv zanjiridan iborat bo'lgan hayvonlarni aniqlang.  
 1) nereida; 2) appalon; 3) nematoda; 4) langust;  
 5) exinokokk; 6) askarida; 7) qoraqurt; 8) midiya; 9) bo'ka;  
 10) aureliya  
 A) 2, 4, 6, 9, 10 B) 3, 5, 6, 8, 10 C) 1, 2, 4, 7, 9  
 D) 1, 3, 6, 7, 9
38. Bog'ibag'ir qanday organizm?
- A) *saprofit* B) *geterotrof* C) *xemotrof* D) *fototrof*
39. Mevasi atrofini o'rab olgan qanotchalar yordamida shamolda bir yerdan ikkinchi yerga tarqaladigan o'simliklarni belgilang.  
 A) *rovoch, qo'g'a* B) *tol, terak* C) *yorongul, xina*  
 D) *boyalich, baliqko'z*
40. Qaysi javobda zirk o'simligiga xos bo'lgan belgilar to'g'ri ko'rsatilgan?  
 1) tikani bargning o'zgarishidan kelib chiqqan; 2) zang zamburug'ining oraliq xo'jayini; 3) hayotiy shakli buta;  
 4) hayotiy shakli daraxt; 5) qorakuya zamburug'ining oraliq xo'jayini; 6) tikani do'lana tikani bilan gomolog  
 A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5
41. O'rta quloq suyakchalarining noto'g'ri rivojlanishidan otoskleroz kasalligi kelib chiqadi. Karlikka olib keluvchi bu kasallik autosoma-dominant holda irsiylanadi. Ota-ona heterozigotali bo'lgan oilada sog'lom bola tug'ilish ehtimolini toping.  
 A) 100% B) 75% C) 50% D) 25%
42. Berilgan moddalarning qaysilari uglevod (a), oqsil (b), lipid (c), polisaxarid (d) hisoblanadi?  
 1) albumin; 2) sitoxrom; 3) somototropin; 4) laktoza;  
 5) glyukoza; 6) xolesterol; 7) sellyuloza; 8) endonukleaza;  
 9) antitelo; 10) steroid; 11) riboza; 12) saxaroza;  
 13) kraxmal; 14) xitin; 15) polimeraza; 16) esterogen  
 A) a-4, 5, 12, 13, 14; b-1, 3, 9, 10; c-6, 8, 10, 15; d-7, 13  
 B) a-5, 6, 9, 12, 16; b-1, 3, 8, 10; c-6, 8, 10, 15; d-13, 14  
 C) a-7, 11, 12, 14; b-2, 3, 8, 15; c-6, 10, 16; d-7, 14  
 D) a-4, 5, 6, 11, 13, 15; b-1, 3, 8, 9, 16; c-6, 8, 10, 16; d-7, 13, 14
43. Yung qavati yo'q sutemizuvchilar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.  
 A) *kit, o'rdakburun* B) *fil, kit* C) *tulen, jirafa*  
 D) *tulen, dengiz mushugi*

44. Biogenetik qonun o'z ifodasini topgan misollarni aniqlang.  
 1) sutemizuvchilarda teri orasida soch xaltasining rivojlanishi; 2) madaniy g'o'zada dastlab yaxlit plastinkali bargning paydo bo'lishi; 3) baqa itbalig'ining baliqlarga o'xshashligi; 4) qushlar va sutemizuvchilar embrionida halqumning oldingi qismida jabra yoriqlarining bo'lishi; 5) odam embrionida yurakning bitta qorincha va bo'lmachadan iboratligi; 6) qushlarda epiteliy va biriktiruvchi to'qimalar hosilasidan patning hosil bo'lishi; 7) sudralib yuruvchilar embrionida jabra yoriqlarining bo'lishi; 8) sudralib yuruvchilarda tangacha hosil bo'lishi.  
 A) 2, 4, 7, 8 B) 1, 6, 8 C) 2, 3, 5, 7 D) 1, 3, 5, 6
45. Shimoliy Amerikada qor bo'ronidan so'ng normal qanotli chumchuqlarning yashab qolishi (a), kuchli shamol tez-tez bo'ladigan okean orollarida uzun qanotli hasharotlarning nobud bo'lishi (b) qanday hodisalarga misol bo'ladi?  
 A) *a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish*  
 B) *a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish*  
 C) *a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish*  
 D) *a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish*
46. Ko'rgalak skeletidagi harakatchan (a) va harakatsiz (b) birikkan suyaklarini ko'rsating.  
 1) ustki jag'; 2) ko'krak umurtqalari; 3) bo'yin umurtqalari;  
 4) oyoq kamari; 5) qovurg'alar; 6) pastki jag'  
 A) a-3, 5, 6; b-1, 2, 4 B) a-3, 4, 5, 6; b-1, 2  
 C) a-1, 3, 6; b-2, 4, 5 D) a-2, 3, 6; b-1, 4, 5
47. Bakteriyalar tomonidan elementar azotning o'zlashtirilishi (a) va atmosferaga ajratilishi (b) qanday nomlanadi?  
 A) *a-denitrifikatsiya; b-azotfiksatsiya*  
 B) *a-ammonifikatsiya; b-denitrifikatsiya*  
 C) *a-azotfiksatsiya; b-denitrifikatsiya*  
 D) *a-ammonifikatsiya; b-nitrifikatsiya*
48. Havo xaltachasi mavjud bo'lgan hayvonlarni ko'rsating.  
 1) koala; 2) assidiya; 3) kaputsin; 4) kuropatka; 5) kasatka;  
 6) tovusko'z; 7) kuyka; 8) jo'rchi; 9) qur  
 A) 5, 6, 7, 8 B) 2, 5, 9 C) 1, 3, 9 D) 4, 7, 8, 9
49. Bug'doy o'simligi tetraploid navining mikrosporadan vegetativ hujayraning hosil bo'lishida profaza (a), metafaza (b), anafaza (c) bosqichlaridagi xromosoma (1) va DNK molekullari (2) soni to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating.  
 A) 1 - a - 28, b - 28, c - 28; 2 - a - 28, b - 28, c - 28  
 B) 1 - a - 14, b - 14, c - 28; 2 - a - 28, b - 28, c - 28  
 C) 1 - a - 28, b - 28, c - 56; 2 - a - 56, b - 56, c - 56  
 D) 1 - a - 7, b - 7, c - 14; 2 - a - 14, b - 14, c - 14
50. Eshitish organi faqat ichki quloqdan iborat bo'lgan hayvonlar turkumini aniqlang.  
 A) *dumlilar* B) *tangachalilar* C) *suyak-tog'aylilar*  
 D) *dumsizlar*
51. Qaysi javobda korsakning tishlari tuzilishi to'g'ri moslab ko'rsatilgan?  
 a) kurak; b) qoziq; c) oziq;  
 1) yassi; 2) mayda; 3) konussimon; 4) ponasimon; 5) yirik;  
 6) kuchli  
 A) a - 2, 4; b - 1; c - 5, 6 B) a - 5, 6; b - 3; c - 1  
 C) a - 2, 4; b - 3, 5; c - 1 D) a - 2; b - 3; c - 5, 4

52. Ma'lum bir navli piyoz o'simligida piyozboshning qizil rangi sariq rangga nisbatan ustunlik qiladi, lekin ikkinchi juft noallel genning retsessiv alleli rang ta'sirini bo'g'ib, oq rangni yuzaga chiqaradi. Digeterozigota o'simliklar chatishtirilganda olingan avlodning necha foizida piyozboshi qizil bo'lmaydi?  
A) 43,75% B) 62,5% C) 56,25% D) 37,5%
53. Qaysi javobda barglari novdada qarama-qarshi joylashgan, gullari qiyshiq o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) kiyiko't; 2) beda; 3) loviya; 4) marmarak; 5) isirg'ao't; 6) nastarin; 7) rayhon; 8) afsonak  
A) 1, 6, 7 B) 2, 3, 5, 8 C) 1, 5, 7 D) 2, 4, 6, 8
54. Qaysi javobda yo'rg'a tuvaloqqa xos bo'lgan ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) tez yuguradi; 2) uzoqdan ko'zga tashlanmaydi; 3) juft bo'lib yashaydi; 4) diafragmasi rivojlangan; 5) daraxt shoxlariga uya quradi; 6) "Qizil kitob"ga kiritilgan; 7) urg'ochisi bolalarini himoya qilish uchun nayrang ishlatadi; 8) tuyaqushlar turkumiga mansub  
A) 1, 2, 6, 7, 8 B) 1, 2, 4, 5, 8 C) 1, 2, 3, 6, 7 D) 1, 3, 4, 6, 7
55. Odam organizmidagi glikogen hosil bo'lishida qaysi gormonlar ishtirok etadi?  
A) *mineralokortikoid, insulin* B) *timozin, katexolamin*  
C) *paratgormon, androgen* D) *insulin, glyukokortikoid*
56. Odam qonining qaysi qismida agglutinin (1), rezus omil (2), agglutinogen (3) moddalari bo'ladi?  
a) eritrotsit; b) leykotsit; c) plazma  
A) 1-a, 2-c, 3-a B) 1-a, 2-b, 3-c C) 1-c, 2-a, 3-a D) 1-c, 2-a, 3-b
57. Drozofilada ko'zning oq rangda bo'lishi retsessiv, qizil rangda bo'lishi dominant hamda jinsga bog'liq holda irsiylanadi. Erkak drozofila oq ko'zli bo'lsa, gametogenez jarayonida ikkita birlamchi jinsiy hujayradan hosil bo'lgan spermatozoidlarning nechitasi shu retsessiv genga ega bo'ladi?  
A) 0 ta B) 2 ta C) 1 ta D) 4 ta
58. Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlar o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. i-RNK molekulasida 289 ta fosfodiefir bo'g bo'lsa, ushbu i-RNK sinteziga asos bo'lgan DNK fragmenti qo'sh zanjiridagi nukleotidlar sonini aniqlang.  
A) 578 ta B) 290 ta C) 289 ta D) 580 ta
59. Fotoperiodizmga misol bo'la olmaydigan hodisalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) o'simliklarda fotosintezning borishi; 2) sodda hayvonlarning yorug'likka qarab harakatlanishi; 3) zarg'aldoqning migratsiyasi; 4) o'simlikning bargini quyoshga o'girishi; 5) ayiq va bo'rsiqning qishki uyquga ketishi; 6) o'simliklarning bakteriyalarga qarshi fitoaleksin ishlab chiqarishi; 7) gornostayning tullashi; 8) kuropatkaning urchishi; 9) organik moddalarning detritofaglar tomonidan parchalanishi  
A) 1, 3, 6, 7, 9 B) 4, 5, 8, 9 C) 2, 5, 8 D) 4, 6, 9
60. Toron, qo'ziquloq hujayralarining mexanik ta'sirlarga nisbatan mustahkamligini ta'minlaydigan xususiyatni aniqlang.  
A) *buferlik* B) *turgorlik* C) *plazmoliz*  
D) *transpiratsiya*
61. Odamlarda lipaza fermenti qaysi a'zoda faoliyat ko'rsatadi (a), qaysi a'zodan ajraladi (b)?  
1) og'iz bo'shlig'i; 2) oshqozon; 3) me'da; 4) me'da osti bezi; 5) ingichka ichak; 6) o'n ikki barmoqli ichak; 7) yo'g'on ichak.  
A) a - 2, 4, 5, 6; b - 1, 2, 5 B) a - 3, 4, 5, 6; b - 2, 5, 7  
C) a - 2, 5, 6; b - 3, 4, 5 D) a - 3, 5, 6, 7; b - 2, 5, 6
62. N.I. Vavilovning irsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatorlar qonuniga mos keluvchi ma'lumotlarni ko'rsating.  
1) tur tarqalgan areal markazida dominant belgilarga ega formalar hukmronlik qiladi;  
2) bug'doyda qizil va oq donli formalar uchrasa, shunga o'xshash formalar arpa va sholida ham uchraydi;  
3) madaniy o'simliklarning 50%i Janubiy Osiyo tropik markazidan kelib chiqqan;  
4) qushlar va sutemizuvchilar sinfidagi patsiz va yungsiz formalar uchraydi;  
5) kelib chiqishi yaqin turlarda irsiy o'zgaruvchanlik bir-biriga o'xshash bo'ladi;  
6) qand lavlagi va beda O'rta Yer dengizi markazidan kelib chiqqan;  
7) kakao daraxti vatani Efiopiya hisoblanadi;  
8) tamaki Janubiy Amerikadan tarqalgan;  
9) 20% madaniy o'simlik Janubi-g'arbiy Osiyodan kelib chiqqan;  
10) tur tarqalgan arealning chekka qismini retsessiv belgili gomozigotalar ishg'ol qiladi;  
11) markazlar soni 12 taga ko'paytirilgan;  
12) domiant belgili areal atrofini geterozigota organizmlar o'rab turadi  
A) 1, 10, 12 B) 2, 4, 5 C) 3, 6, 8 D) 7, 9, 11
63. Oziq zanjiri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
A) *O'simlik - toshbaqa - boltayutar - sarisor*  
B) *O'simlik - kaltakesak - mangust - ilon*  
C) *O'simlik - sichqon - tipratikan - ilon - tulki*  
D) *O'simlik - sichqon - ilon - tipratikan*
64. Odamdagi ko'z gavhari uchun xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsating.  
1) ko'zga tushuvchi yorug'lik nurini sindirib o'tkazadi;  
2) yaqindagi buyumlarga qaralganda yassilashadi;  
3) akkomodatsiya hodisasini ta'minlaydi;  
4) atrofini kipriksimon muskullar o'rab turadi;  
5) uning do'ngligining kamayishi tufayli miopiya holatlari kuzatiladi;  
6) uning do'ngligining kamayishi uzoqdan ko'rish kasalligini keltirib chiqaradi.  
A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 3, 4, 5 D) 1, 4, 6
65. DNK molekulasida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog' bor, qo'shni nukleotidlar orasi 0,34 nm ga teng. Ma'lum DNK bo'lagida 1050 ta vodorod bog' bo'lib, shundan 60% guanin va sitozin orasida bo'lsa, shu DNK bo'lagidagi nukleotidlarning jami sonini toping.  
A) 410 B) 820 C) 420 D) 840
66. Qaysi javobda parmeliyaga xos belgilar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) tayoqchasimon bakteriya; 2) bargsimon lishaynik;  
3) yopishqoq lishaynik; 4) tarkibida mezosoma bor;  
5) tarkibida lixenin bor; 6) qobig'i murein moddasidan iborat; 7) tarkibida xitin moddasi bor  
A) 3, 4, 6 B) 1, 4, 6 C) 2, 5, 7 D) 3, 5, 7
67. Qaysi javobda chuchmomadolarga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) chang hujayrasi mavjud; 2) tuxum hujayra arxegoniya yetiladi; 3) tuxum hujayra murtak xaltada yetiladi; 4) urug'i qubbada yetiladi; 5) urug'i meva ichida yetiladi; 6) qo'sh urug'lanish kuzatiladi; 7) gul hosil qiladi; 8) bennettit o'simligi bilan bir bo'limga kiradi  
A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 4, 8 C) 2, 5, 7, 8 D) 1, 3, 4, 6

68. Quyida berilganlardan qaysilari I.M.Sechenov fikrlari va olib borgan ishlariga tegishli emas?  
1) muskul va paylardagi sezuvchanlikni chuqur o'rgangan;  
2) visseroretseptorlarning sezuvchanligini "yashirin sezgi" deb atagan;  
3) "Tush ko'rish bu odam ko'rgan kechirganlarini uyquda aralash holdagi ko'rinishidir" deya fikr bildirgan;  
4) O'z asarida odam barcha ixtiyoriy harakati, fikrlashi ruhiy holatlari reflekslar orqali sodir bo'lishi haqida fikr yuritgan;  
5) "Nutq bizni odam qildi" degan fikr aytgan;  
6) "Biror organizm tashqi muhitsiz yashay olmaydi" degan.  
A) 2, 4 B) 2, 5 C) 3, 4 D) 1, 6
69. Odamlarda qandli diabet va fenilketonuriya kasalliklari autosomada joylashgan retsessiv gen orqali yuzaga chiqadi. Qandli diabet bilan kasallangan erkak shu belgilari bo'yicha sog'lom ayol bilan turmush qurdi. Ularning oilasida tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlardan biri qandli diabet bilan, ikkinchisi esa fenilketonuriya bilan kasallangan. Tug'ilgan farzandlarning necha foizi ikkala belgi bo'yicha kasal?  
A) 25 B) 75 C) 12,5 D) 50
70. Qaysi javobda ona asalariga mos keluvchi belgilar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) nishtari bor; 2) nishtari yo'q; 3) ishchilarga nisbatan yirik; 4) ishchilarga nisbatan kichik; 5) mo'ylovi rivojlangan;  
6) ko'zi yaxshi rivojlangan; 7) orqa oyog'idagi savatchada gul changini yig'adi; 8) og'zi kemiruvchi-so'ruvchi; 9) og'iz organi yaxshi rivojlanmagan; 10) mumdan katak yasaydi; 11) urug'langan tuxum hujayradan rivojlanadi; 12) urug'lanmagan tuxum hujayradan rivojlanadi  
A) 2, 3, 5, 6, 9, 12 B) 1, 7, 8, 10, 11 C) 2, 4, 6, 8, 12 D) 1, 3, 9, 11
71. Seleksiyada nomdor qoramol zotlaridan ko'plab tuxum hujayralarini olishda sigirga ...  
A) gibridoma texnologiyasi qo'llaniladi  
B) har xil genlar mikroinyeksiya qilinadi  
C) o'sish gormoni geni kiritiladi  
D) gormon inyeeksiya qilinadi
72. Qaysi javobda changchi iplarining hammasi qo'shilgan o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) oqquray; 2) afsonak; 3) oshqovoq; 4) kanop; 5) gulxayri; 6) itqovun; 7) qozonyuvg'ich; 8) soya; 9) tugmachagul  
A) 1, 2, 8 B) 3, 6, 7 C) 1, 4, 5 D) 4, 5, 9

### KIMYO

73. Umumiy massasi  $0,147 \cdot 10^2$  g bo'lgan fenol va aromatik uglevodorod aralashmasi bromli suv bilan ta'sirlashganda 33,1 g cho'kma hosil bo'ldi. Agar fenolning uglevodorodga mol nisbati 2:1 bo'lsa, uglevodorod nomini aniqlang.  
A) krezol B) stiroil C) o-ksilol D) kumol
74. Tarkibida 3 ta  $sp^2$  orbital mavjud bo'lgan modda(lar)ni aniqlang.  
A)  $SO_3$  va  $SO_2$  B)  $SO_3$  C)  $SO_2$  D)  $BH_3$
75.  $C_7H_{16}$  tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta?  
A) 6 ta B) 7 ta C) 9 ta D) 5 ta
76. 28,65 g propilpropionatga yetarli miqdordagi suv qo'shildi va 2 ml 98% li ( $\rho=1,84$  g/ml) sulfat kislota ishtirokida uzoq vaqt davomida qizdirildi. Olingan aralashma  $KHCO_3$  eritmasi bilan ishlendi. Bunda 5 l (n.sh.) gaz ajraldi. Reaksiya unumini (%) toping.  
A) 60,6 B) 45,8 C) 62,4 D) 50,2
77. 160 g 2,5% li  $AlCl_3$  va 80 g 5% li  $NaOH$  eritmalari aralastirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.  
A) 2,34 B) 0,51 C) 1,02 D) 1,17
78. 3,2 g kremniy va uglerod aralashmasi qizdirilgan ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda 2,56 l gaz ajraldi. Aralashmadagi uglerodning massa ulushini toping.  
A) 0,7 B) 0,5 C) 0,4 D) 0,6
79. 0,24 kg suvda  $LiH$  va  $KH$  aralashmasi eritilishi natijasida 8,32% li ishqor eritmasi hosil bo'ldi va eritma massasi dastlabki umumiy massaga nisbatan 1,2 grammga kamaydi. Boshlang'ich aralashmaning massasini (g) aniqlang.  
A) 11,2 B) 14,4 C) 10,8 D) 20,8
80. 0,3 l qaynoq ishqor eritmasidan brom o'tkazilganda bromid va bromat ionlari orasidagi ayirma 27,2 g ni tashkil qilsa, bu reaksiya uchun sarflangan brom massasini (g) va ishqorning molyarligini (mol/l) hisoblab toping.  
A) 48; 2 B) 24; 1 C) 72; 3 D) 48; 1
81. Yog'ning to'la yonishi uchun 130,4 g kislorod sarf bo'ldi. Bunda 2,75 mol suv va 2,85 mol karbonat anhidrid gazi hosil bo'ldi. Yog'ning molyar (g/mol) massasini aniqlang.  
A) 834 B) 806 C) 890 D) 862
82. Oqsil molekulasida bir atom oltingugurt bo'lib, uning massa ulushi 0,32% ni tashkil etsa, oqsilning molekulyar massasini toping.  
A) 1000 B) 100 C) 10000 D) 100000
83. Massasi (g) qanday bo'lgan fenoldan tarkibida 4,4 mol neytron tutgan siklogeksanon olish mumkin?  
A) 490 B) 9,4 C) 470 D) 47
84.  $CO_2$  va  $C_2H_4$  ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda, 393,5 va -52,4 kJ/mol ga teng.  $H_2O$  ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping. (56 g etilen gazi yonishidan 2646 kJ issiqlik ajraladi.)  
A) 179,4 B) 258,8 C) 269,1 D) 241,8
85. Temir (III) gidrooksopirofosfat molekulasida nechtdan  $\sigma$ - va  $\pi$  bog'lar mavjud?  
A) 12; 4 B) 16; 2 C) 20; 4 D) 30; 6
86. Quyidagi moddalarni kristall panjaralari turi bilan to'g'ri juftlab ko'rsating.  
1) metanol; 2) xrom; 3) natriy yodid; 4) olmos; 5) vodorod; 6) geliy;  
a) molekulyar; b) atom; c) ion; d) metall.  
A) 1-b; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a B) 1-a; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a  
C) 1-a; 2-c; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a D) 1-a; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-b
87.  $0,365 \cdot 10^2$  g to'yingan dikarbon kislota mo'l miqdordagi natriy gidroksid eritmasidan o'tkazilganda hosil bo'lgan tuz massasi dastlabki kislota massasidan 1,5 g ga ko'p bo'lsa, kislotani toping. ( $\eta=80\%$ ).  
A) adipin kislota B) glutar kislota C) oksalat kislota  
D) qahrabo kislota
88. 0,2052 kg alyuminiy sulfat eritmasi tarkibida  $66,22 \cdot 10^{24}$  ta proton bo'lsa, eritmadagi tuzning massa ulushini aniqlang (%).  
A) 33,3 B) 66,7 C) 60,0 D) 40,0
89. Quyidagi qatorda elementlarning metalmaslik xossasi qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqami berilgan)  
 $53 \xrightarrow{1} 52 \xrightarrow{2} 34 \xrightarrow{3} 35$   
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi  
A) 1 b; 2 a; 3 b B) 1 b; 2 a; 3 a C) 1 c; 2 a; 3 c  
D) 1 b; 2 b; 3 a

90. Alkadiyenlar gomologik qatorining umumiy formulasini (1, 2, 3, 4) va kislorodda oksidlanish reaksiyasi tenglamasidagi karbonat anhidridning koeffitsiyentini (a, b, c, d) toping (reaksiya mahsuloti sifatida  $CO_2$  va  $H_2O$  hosil bo'ldi deb hisoblang).  
1)  $C_nH_{2n+2}$ ; 2)  $C_nH_{2n-2}$ ; 3)  $C_nH_{2n}$ ; 4)  $C_nH_{2n+1}$ .  
a) n; b)  $1,5n+0,5$ ; c)  $1,5n-0,5$ ; d)  $n-1$   
A) 4; c B) 2; c C) 1; a D) 2; a
91. Qizdirilishi natijasida ikki xil tuz hosil qiladigan moddani aniqlang.  
A) kaliy xlorat B) aluminiy nitrat C) malaxit  
D) mis karbonat
92. Reaksiya muvozanatga kelgandan so'ng hajmiy ulushlari teng bo'lgan 6 mol gazlar aralashmasi hosil bo'ldi ( $N_2 + 3H_2 \rightleftharpoons 2NH_3$ ). Vodorodning boshlang'ich konsentratsiyasini (mol/l) toping (idish hajmi 2 l).  
A) 2,5 B) 1,5 C) 3 D) 5
93. Gustavson usuli bo'yicha 2,6-dixloroktandan qanday sikloalkan olinadi?  
A) 1-metil-2-etilsiklopentan B) etilsiklogeksan  
C) izopropilsiklopentan D) 1,1-dimetilsiklogeksan
94. 16,8 g Fe plastinka 250 g mis (II) sulfat eritmasiga tushirildi. Mis batamom ajralib chiqqandan so'ng plastinka metallarini to'liq eritish uchun 100 ml 50% li  $HNO_3$  eritmasi ( $\rho = 1,26$  g/ml) sarflandi. Boshlang'ich eritmadagi tuz konsentratsiyasini (%) aniqlang. Metallar  $HNO_3$  bilan NO hosil qiladi.  
A) 19,2 B) 12 C) 18 D) 9,6
95. Quyidagi elektron formulaga ega bo'lgan elementlar uchun berilgan iboralardan qaysilari to'g'ri?  
 $X : \dots 3s^2 3p^2$ ;  $Y : \dots 3p^6 4s^2$ ;  $Z : \dots 4s^2 3d^5$ .  
1. uchala element - metall;  
2. X atom kristall panjara hosil qiladi, Y va Z esa metall kristall panjara hosil qiladi;  
3. Z ning ionizatsiya energiyasi X ning energiyasidan kattaroq;  
4. Y ni suvda eritilsa, ishqor hosil qiladi.  
A) 2, 4 B) 3, 4 C) 1, 4 D) 2, 3
96. 32 g mis va magniy qotishmasi sulfat kislotada eritilganda 8,96 l vodorod ajralgan bo'lsa, qotishmadagi metallarning massa ulushlarini (%) aniqlang.  
A) 40; 60 B) 50; 50 C) 70; 30 D) 20; 80
97. 20% li eritma olish uchun 200 g 16% li eritmaga geliyga nisbatan zichligi 20,25 ga teng bo'lgan gazdan necha litr (n.sh.) yuttirish kerak?  
A) 2,24 B) 2,77 C) 11,1 D) 2,21
98. 0,6 l ( $P=83,2$  kPa,  $t=360$  K) hajmdagi noma'lum modda bug'ining massasi 1,3 g ga teng. Moddaning havoga nisbatan zichligini aniqlang.  
A) 2,78 B) 2,29 C) 2,68 D) 2,44
99. 17 g temir (II) sulfid va pirit ( $FeS_2$ ) aralashmasi yondirildi. Bunda 0,225 mol gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmaning massa ulushini (%) aniqlang.  
A) 84,2; 16,8 B) 72,8; 28,2 C) 64,7; 35,3 D) 59,2; 41,8
100. Natriy sulfat dissotsialanishidan hosil bo'lgan ionlar sonining dissotsialanmagan molekullar soniga nisbati 9:1 bo'lsa, dissotsialanish darajasini ( $\alpha$ ) toping.  
A) 82 B) 75 C) 87 D) 90
101. 0,5 mol natriy benzoat 0,3 mol NaOH bilan qizdirilganda hosil bo'lgan benzoldan kumul olish uchun qanday massadagi (g) 2-brompropan kerak?  
A) 6,15 B) 36,9 C) 3,9 D) 23,4
102. 0,7 mol  $H_2S$  mo'l miqdordagi kislorodda yondirilishidan olingan mahsulotlar 200 g natriy gidroksid eritmasidan o'tkazildi. Nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 19,2 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan eritmadagi o'rta tuzning massasini (g) hisoblang.  
A) 25,2 B) 63 C) 50,4 D) 37,8
103. 1 mol  $C_3H_6$  va  $H_2$  aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 15 ga teng. Gazlar aralashmasi yopiq idishda Pt katalizator ishtirokida  $320^\circ C$  gacha qizdirildi. Bunda harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 18% ga kamaygan bo'lsa, reaksiyaning muvozanat konstantasini toping.  
A) 2,14 B) 2,88 C) 1,15 D) 0,86
104. 301 ta molekulasi  $0,32 \cdot 10^{-22}$  kg bo'lgan modda formulasini toping.  
A)  $CH_4$  B)  $SO_3$  C)  $SO_2$  D)  $O_2$
105. Natriy karbonat va natriy gidrokarbonatdan iborat 60 g aralashma kuydirilganda 2,7 g suv ajralib chiqqan bo'lsa, aralashmadagi  $Na_2CO_3$  va  $NaHCO_3$  ning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.  
A) 58; 42 B) 48; 52 C) 55; 45 D) 40; 60
106. Qaysi tuzlar suvda eriganda kislotali muhit hosil qiladi?  
A)  $Na_2S$ ,  $K_2SiO_3$  B)  $Cu(NO_3)_2$ ,  $ZnSO_4$   
C)  $Al_2S_3$ ,  $Ba_3(PO_4)_3$  D)  $Li_2SO_3$ ,  $K_2SO_3$
107.  ${}_{109}^{258}Mt \rightarrow {}_Z^A E + x {}_2^4\alpha + 2 {}_+^0\beta + 6 {}_0^1n$   
Ushbu yadro reaksiyasida 25,8 mg Mt izotopi yemirilishidan necha  $sm^3$  (n.sh.) He gazi hosil bo'ladi? E ning tarkibidagi neytronlar soni Mt ning elektronlar soniga teng bo'lsa, E tarkibidagi e, p, n larning yig'indisini aniqlang.  
A) 40,32; 251 B) 44,8; 256 C) 33,6; 180 D) 22,4; 252
108. Is gazi va vodoroddan iborat 70 ml aralashmaga 70 ml  $O_2$  qo'shib portlatildi. Reaksiya tugagach, sistema dastlabki sharoitga keltirilganda hajm 105 ml gacha kamaydi. Suv bug'lari kondensatlangandan so'ng esa hajm 70 ml ga teng bo'ldi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi gazlarning massa ulushini aniqlang.  
A) 0,27; 0,73 B) 0,58; 0,42 C) 0,5; 0,5 D) 0,33; 0,67